BRI doirasida raqamli transformatsiya va yangi o‘zbekistonda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

Sadullayeva Laziza Umar qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Tel.(88) 494 41 40

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Bir kamar, bir yo‘l” doirasida raqamli transformatsiya jarayonlari hamda ularning Yangi O‘zbekistonda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada Digital Silk Road konsepsiyasi, raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlari, ta’lim tizimining modernizatsiyasi va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar. BRI, Digital Silk Road, raqamli transformatsiya, kasbiy kompetensiyalar, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, IT, Yangi O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы цифровой трансформации в рамках Belt and Road Initiative и их влияние на развитие профессиональных компетенций в Новом Узбекистане. В статье рассматриваются концепция Digital Silk Road, возможности цифровой экономики, модернизация системы образования и подготовка кадров в соответствии с требованиями современного рынка труда. Также освещаются проблемы цифровой экономики и перспективы их решения.

Ключевые слова. BRI, Digital Silk Road, цифровая трансформация, профессиональные компетенции, человеческий капитал, цифровая экономика, искусственный интеллект, IT, Новый Узбекистан.

Abstract. This article analyzes the processes of digital transformation within the framework of the Belt and Road Initiative and their impact on the development of professional competencies in New Uzbekistan. The paper examines the concept of the Digital Silk Road, opportunities of the digital economy, modernization of the education system, and training specialists according to the demands of the modern labor market. In addition, the article highlights the challenges of the digital economy and the prospects for overcoming them.

Keywords. BRI, Digital Silk Road, digital transformation, professional competencies, human capital, digital economy, artificial intelligence, IT, New Uzbekistan.

Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar tezlik bilan rivojlanib borayotgan bu davrda davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan inson kapitaliga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big data), elektron tijorat, raqamli logistika zamonaviy xalqaro mehnat bozorini keskin o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda davlatlar oldida faqatgina iqtisodiy modernizatsiya masalasi emas, balki zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish masalasi ham turadi.

Bungungi kunda Xitoy Xalq Respublikasining “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi xalqaro iqtisodiy integratsiya muhim o‘rinlardan biriga ega bo‘lib ulgurdi. Dastlab, ushbu tashabbus faqat transport va

infratuzilma loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, hozirda o‘z qamrovini kengaytirib, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, ta’lim sohalarini ham o‘z ichiga olmoqda. Ayniqsa, 2015-yilda ishga tushirilgan “Raqamli Ipak Yo‘li” (Digital Silk Road) konsepsiyasi orqali raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib, texnologik almashinuvlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli iqtisodiyotning kengayishi davlatlar o‘rtasida hamkorlik shakllarini tubdan o‘zgartirib, xalqaro savdo, logistika, moliya, ta’lim tizimlarini yangi pog‘onaga ko‘tarmoqda. Shu jarayonda “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi texnologik va raqamli integratsiya platformasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. BRI tashabbusi 2013-yilda Xitoy tomonidan ilgari surilib, Osiyo, Yevropa, Afrika davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash uchun joriy etilgan. Dastlab ushbu tashabbus transport yo‘laklari, temiryo‘l tarmoqlari, port va energetika sohalariga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik o‘z ichiga “Raqamli Ipak Yo‘li” loyihasini ham qo‘shdi.

Ushbu konsepsiya raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internet tarmoqlarini kengaytirish, telekommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. “Raqamli ipak yo‘li” bir nechta muhim yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ulardan telekommunikatsiya va 5G taxnologiyalari orqali global internet qamrovi kengaytirilmoqda. Xitoy kompaniyalari arzon va samarali texnologiyalar orqali rivojlanayotgan davlatlarda tarmoqlarni modernizatsiya qilmoqda. Ikkinchi muhim yo‘nalishlardan biri elektron tijorat. Alibaba Group kabi kompaniyalar kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratib global savdoni raqamlashtirish bilan shug‘ullanmoqda. Uchinchi yo‘nalish sun’iy intellekt va Big Data. CAIED ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyning 155 ta sun’iy intellekt eksporti loyihalari 64 mamlakatda aniqlangan bo‘lib, ular sun’iy intellekt ilovalari yoki sun’iy intellekt infratuzilmasi (ya’ni, sun’iy intellekt ilovalari uchun muhim infratuzilma yoki kelajakda sun’iy intellekt ilovalarini moslashtirish imkonini beruvchi vosita sifatida) sifatida tasniflangan [1].

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ham so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va ta’lim sohalarida keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, bank moliya, ta’lim, xizmat ko‘rsatish sohalarida ham muhim islohotlar amalga oshirilmoq. 2020–2025-yillar davomida raqamli infratuzilma sezilarli darajada kengaydi. Internet foydalanuvchilari soni 2017-yildagi 15 milliondan 2025-yilda 32 millionga oshdi, bu aholining 87 foizini qamrab oladi. Davlat xizmatlari:2024-yilda “my.gov.uz” portalida 430 dan ortiq xizmat faoliyat yuritmoqda, foydalanuvchilar soni 15 milliondan oshgan. Shuningdek, “ID.UZ” orqali yagona elektron identifikatsiya tizimi joriy etilgan. Elektron imzo va mobil raqamli xizmatlar orqali fuqarolar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Ta’lim sektori: “Raqamli maktab” loyihasi doirasida 2 mingdan ortiq ta’lim muassasasi internet tarmog‘iga ulangan [2]. Umuman olganda, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari mamlakatning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega inson kapitalini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellektning rivojlanishi inson kapitaliga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda davlatlarning raqobatbardoshligi endilikda tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish hajmiga emas, balki inson kapitalining sifati va innovatsion salohiyatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu sababli ta’lim tizimi ham yangi texnologik muhitga moslashishi zarur. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari natijasida an’anaviy kasblarning ayrimlari yo‘qolib borayotgani, buning o‘rniga esa yangi texnologik kompetensiyalarni talab qiluvchi kasblar shakllanib boryabdi.

Ayniqsa, data analysis, AI technologies, digital management, cyber security va IT skills kabi ko‘nikmalar zamonaviy mehnat bozorida eng muhim kompetensiyalar sifatida namoyon bo‘lyabdi [3]. "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik dasturlari mazkur

kompetensiyalarni yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xususan, ta’lim va texnologik almashinuv dasturlari orqali talabalar va yosh mutaxassislar xalqaro tajriba almashish va o‘zlashtirish imkonini qo‘lga kiritishmoqda. Xitoy universitetlari, ilmiy markazlar va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik bu sohalarda malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston global mehnat bozorida mos raqobatbardosh malakali kadrlar shakllantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston uchun raqamli iqtisodiyotning eng muhim imkoniyatlaridan biri kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bilan bog‘liqdir [4]. Elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi tadbirkorlarga o‘z mahsulot va xizmatlarini keng bozorga olib chiqish imkonini bermoqda. Ayniqsa, internet platformalari orqali biznes yuritish xarajatlarni kamaytirish, mijozlar sonini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Natijada yangi startaplar va innovatsion loyihalar soni ortib, mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi kengaymoqda.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi ham raqamli iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron hukumat tizimi bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Onlayn davlat xizmatlari aholiga qulaylik yaratish bilan birga byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Elektron hujjat aylanishi, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, raqamli to‘lov va davlat xizmatlarini masofadan turib olish imkoniyatlari boshqaruv tizimining samaradorligini oshirmoqda. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy IT infratuzilma, internet tarmoqlarining rivojlanishi va innovatsion muhitning shakllanishi xalqaro investorlarning qiziqishini oshirmoqda. Ayniqsa, “Bir kamar, bir yo‘l” doirasidagi texnologik hamkorlik O‘zbekistonda telekommunikatsiya, logistika va elektron tijorat sohalariga investitsiyalar oqimini kuchaytirmoqda. Bu esa yangi texnologiyalar transferi, zamonaviy ish o‘rinlari yaratilishi va malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, global dunyoda raqamli transformatsiya davlatlaening iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, “Bir kamar, bir yo‘l” loyihasi doirasi shakllanayotgan “Raqamli Ipak Yo‘li” xalqaro texnologik hamkorlikni kuchaytirib, inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekiston amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya jarayonlari mamlakatning integratsiyalashuvini kengaytirmoqda. Elektron hukumat, IT kompaniyalarining kengayishi, onlayn ta’limning joriy etilishi yoshlar uchun ajoyib imkoniyatlar yarayib, zamonaviy mehnat bozoriga munosib malakali kadrlar tayyorlashda xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. BoueyJ.HuL.SchollK.MarcellinoW.YiS.DossaniR.et al. (2023). China's AI exports database (CAIED). Santa Monica, CA: RAND Corporation.
2. Yovqochev, S., & Umarov, J. (2025, November). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: O ‘ZBEKISTON MISOLIDA. In Scientific practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 60-64).
3. Sanjar Goyipnazarov — “Improving the Mechanism of Digital Development of Human Capital Based on Artificial Intelligence” (2023).
4. Azamat, Z. (2025). O ‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(39), 121-124.